

Xudoyorxon



Xudoyorxon

(1831, Qo'qon – 1884, Karrux, Afg'oniston)

(1845-1858; 1862-1863; 1865-1875)

Minglar sulolasiga mansub bo'lgan Qo'qon xoni (1845-1875- tanaffuslar bilan). **Sheralixonning** o'g'li. Qaynotasi *Musulmonqul* tomonidan taxtga o'tqazilgan. Ammo yosh bo'lganligi tufayli amalda davlat ishlarini Musulmonqul boshqarib borgan. Eng muhim lavozimlar qipchoqlar qo'liga o'tadi va ular hohlaganicha beboshliklar qila boshlaganlar. Natijada ichki kursh kuchayib, 1853 yilda qipchoqlar qirg'ini boshlagan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar o'ldirilgan, Musulmonqul esa Qo'qonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo, tajribasizligi tufayli ko'p xatolarga yo'l qo'ygan. Bundan foydalangan akasi *Mallabek* taxt uchun kurashni boshlab yuborib 1858 yilda o'zini Qo'qon xoni deb e'lon qilgan. Xudoyorxon Buxoroga qochishga majbur bo'lgan. 1863 yilda Buxoro amiri **Muzaffar** yordamida Qo'qon taxtiga qayta o'tirgan. Ammo Musulmonqulning o'g'li mingboshi alimqul xonzodalardan bo'lmish yosh **Said Sultonmurod**ni xon deb e'lon qiladi va Xudoyorxonni yana Buxoroga qoxhishga majbur etgan. Alimqul amir ul-umaro bo'lib amalda davlat ishlarini yakka o'zi boshqarib borgan.

Qo'qon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864-y) va Toshkentni (1865-y.) bosib olgan. 1865 yilda Qo'qon taxtiga **Xudoyqul** («*Belboqchixon*» degan laqabi ham mavjud) o'tirgan. Ammo u 14 kundan so'ng xazinani o'zi bilan olib Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan.

Xudoyorxon davrida qishloq xo'jaligiga e'tibor berilgan, yangi anhor va ariqlar qazilgan.

Qo'qonda 1873 yilda xon o'rdasi bitkazilib nihoyasiga yetkazilgan. Bundan tashqari, Xudoyorxon davrida "**Madrasai Oliy**", "**Madrasai Hokim oyim**", "**Madrasai Sulton Murodbek**"lar qurilgan. Xudoyorxonning farmoni bilan mahzun (Ziyovuddin Ho'qandiy) 1696 sahifalik "**Shohnoma**" asarini yozgan (qo'lyozma Istambulda saqlanmoqda).

Xudoyorxon davrida xonlik hududi ancha qisqarib, turli soliqlar o'ylab chiqilgan. Buning ustiga 1868 yilgi Turkiston general-gubernatori **K.P.Kaufman** bilan tuzilgan "teng huquqli" shartnomaga muvofiq, rus savdogarlariga xonlikning hamma shahar va qishloqlarida bo'lish va karvonsaroylar qurish, rus tovarlarini xonlik hudui orqali boshqa davlatlarga boj to'lamasdan bemalol olib o'tish huquqi berilgan; rus savdogarlari qo'qonlik savdogarlar bilan bir miqdorda boj to'laydigan bo'lgan. Xudoyorxon Turkiya va Buxoro bilan yaxshi aloqaga bo'lishga, angliya emissarlari bilan uchrashib, ulardan madad olishga intilgan. Ammo, yuzaga kelgan siyosiy vaziyat tufayli u K.P. Kaufman bilan ko'proq yaqinlashishga majbur bo'lgan.

Taxt uchun kurashlar, o'zaro urushlar, soliqlarning ko'payib ketishi aholi turmushini og'irlashtirgan. Natijada xonlikda tez-tez qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Shulardan eng kattasi 1873 yilda boshlangan "**Po'latxon qo'zg'oloni**" bo'lgan. Qo'zg'olonni bostirishning ilojini topa olmagan Xudoyorxon, barcha xazinani olib K.P.Kaufmandan harbiy yordam olish uchun Toshkentga qochgan, so'ngra Orenburgga surgun qilingan. U bu yerdan qochib Makkaga borgan. Keyinchalik, Qo'qon xonligining qolgan hududlarini ham Rossiya bosib olganidan so'ng, Xudoyorxon K.P. Kaufmanga rasman murojat qilib siyosiy ishlarga aralashmaslikni va'da qilib Qo'qonga qaytishga ruxsat so'ragan, ammo rad javobini olgan. Xudoyorxon ikkinchi marta murojat qilgan. Bu ariza senatda ko'rib chiqilib Xudoyorxonga Qo'qonga qaytishga ruxsat berilgan. Ammo bundan xabarsiz Xudoyorxon yashirin holda Qo'qonga qaytmoqchi bo'lgan. Yo'lda vafot etgan.

2023-11-29 10:09:06